

O'RTA TOLALI G'O'ZADA CHIGIT MOYDORLIGI VA OQSIL MIQDORI YUQORI BO'LGAN SELEKSION ASHYOLAR YARATISH

*Xakimova Maxsuna Mamarahim qizi*¹

*Xolmurodova Go'zal Ro'ziyevna*²

Annotatsiya: Maqolada o'rta tolali g'o'zada chigit moydorligi va oqsil miqdori yuqori bo'lgan seleksion ashyolar yaratish borasidagi tadqiqot natijalari yoritilgan bo'lib, O-385-90/18, O-313-22/18, O-241-42/18 oilalaridan moy va oqsil miqdori yuqori, O-197-200/18 oilasidan moy miqdori yuqori bo'lgan seleksion ashyolar yaratishda genetik-seleksion izlanishlarda foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi keltirilgan.

Kalit so'zlar : o'rta tolali g'o'za, chigit moydorligi, oqsil miqdori, namlik, seleksion ashyo, transgressiv rekombinatsiyalash prinsipi, murakkab oila, konvergent oila.

Turli g'o'za shakllarining chigitida yadroda to'plangan 15 foizdan 29-30 foizgacha moy bo'ladi. Yadro nav va turdan kelib chiqqan holda chigitning 52-60 foiz og'irligini tashkil kiladi. Qilgan 40-48 foizi esa po'stloq va chigit tuki hissasiga to'g'ri keladi. Chigitda moy tuplanishi ko'sak o'sib va rivojlanib borishi bilan ortadi xamda 50-kunga kelib to'xtaydi. G'o'zani to'g'ri parvarishlash yadroning kattalashishi va chigitdagi moy miqdorining ortishini ta'minlaydi. Yetarli mikdorda fosfor, azot va suv bilan ta'minlanganda xamda tuprokka o'z vaqtida ishlov berilganda chigitda moy va okrillar zaxirasi ko'payadi. Tajribalarning ko'rsatishicha, agrotexnika sharoitidan kelib chiqqan holda madaniy g'o'za navlari chigitdagi moy mikdori 20-26 foiz oralg'ida o'zgarib turadi, Fo'za turlari ichida *G.barbadense* L. moy mikdori yuqoriligi bilan ajralib turadi. Chigit tarkibidagi moy mikdori bo'yicha *G.hirsutum* L. ikkinchi o'rinni, *G.herbaceum* L. va *G.arboreum* L. turlari uchinchi o'rinni egallaydi.

Chigitdagi moy miqdori ko'saklar o'simlikning qaysi qismida joylashganligiga ham bog'liq. Ko'sak o'simlikning qanchalik yuqori qismida va bosh poyadan qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, chigitdagi moy miqdori shunchalik kam bo'ladi. O'simlik tupining ichkarisida joylashgan ko'saklar chigitida moy birmuncha ko'p, ularning ekish va hosildorlik sifati ham yukori bo'ladi [1; 88-b.].

Tadqiqotning maqsadi tola chiqimi 38-40 % dan yuqori, hosildorligi 40-45 s/ga, tezpisharligi 105-110 kun, tola sifati IV tip hamda chigiti tarkibida moy miqdori 22 % dan yuqori bo'lgan navlar yaratishdan iborat hisoblanadi.

Tadqiqotning obekti sifatida g'o'zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub transgressiv rekombinatsiyalash prinsipi asosida yaratilgan murakkab va konvergent oilalari, andoza nav sifatida S6524 navidan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti g'o'zaning murakkab va konvergent duragaylash usulini qo'llash orqali yaratilgan yangi oilalar va tizmalarida tola chiqimi, chigit moydorligi ko'rsatkichlarining barqarorlashuvi va ayrim xo'jalik belgilari orasidagi korrelyativ bog'liqliklar hamda olingan ashyolarda belgilar transgressiyasining vujudga kelishi hisoblanadi.

¹ Toshkent davlat agrar universiteti 3-bosqich "Seleksiya va urug'chilik" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorant

² Toshkent davlat agrar universiteti q.x.f.d.(DSc), professor



Tadqiqotning usullari. Ilmiy izlanishlar O‘zPITida qabul qilingan «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» (2007) nomli uslubiy qo‘llanma asosida, tola sifati «Agrosanoat majmuida xizmat ko‘rsatish markazi» ning sinov laboratoriyasida Uster HVI Spectrum tola klassifikatsiyasi tizimida, xo‘jalik uchun qimmatli belgilarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Metodika polevogo opita» (1985) qo‘llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari. Bizning tadqiqotlarimizda chigit moydorligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar ajratib olingan oilalar orasidan murakkab duragaylash asosidagi O-197-200/18 (22,26 %) oilasida, transgressiv rekombinatsiyalash prinsipi asosidagi konvergent O-385-90/18 (22,24 %) oilasida nisbatan yuqori natijalar kuzatildi (jadvalga qarang). Ajratib olingan O-357-68/18 (21,61 %), O-229-32/18 (20,96 %), O-155-58/18 (20,23 %), O-241-42/18 (20,23 %), O-31-34/18 (20,08 %), O-165-72/18 (20,10 %), O-189-90/18 (20,05 %) oilalarining moy miqdorining olingan natijalari o‘rta tolali g‘o‘za uchun yuqori hisoblanadi. Qolgan oilalarda esa moy miqdori ko‘rsatkichi 19,13 (O-241-42/18) % dan 19,95 (O-539-40/18) % gacha bo‘lganligi qayd etildi.

Jadval

O‘rta tolalari g‘o‘zada namlik, moy va oqsil miqdori ko‘rsatkichlari (2023)

Oilalar	Oilalarni kelib chiqishi	Moy,%	Oqsil,%	Namlik,%
Transgressiv rekombinatsiyalash prinsipi asosidagi murakkab va konvergent oilalar				
O-229-32/18	SG-1 -[F ₁ (S-9070 x S-6532) x (F ₁ An-415x S-6532)]	18,96	16,39	8,87
O-197-200/18	SG-1 -[F ₁ (S-9070 x S-6532) x (F ₁ An-415x S-6532)]	20,36	11,88	7,61
O-155-58/18	SG-1- [F ₁ (S-9070 x S-6532) x (F ₁ An-415x S-6532)]	19,23	16,69	8,96
O-241-42/18	SG-1 -[F ₁ (S-9070 x S-6532) x (F ₁ An-415 x S-6532)]	19,66	18,62	8,74
O-189-90/18	SG-1- [F ₁ (S-9070 x S-6532) x (F ₁ An-415x S-6532)]	18,13	17,24	9,40
O-51/18	SG-2- [F ₁ (Oqdaryo-6 x S-6532) x (F ₁ Yulduz x S-6532)]	19,05	16,21	8,97
O-31-34/18	SG-2- [F ₁ (Oqdaryo-6 x S-6532) x (F ₁ Yulduz x S-6532)]	18,88	16,14	8,89
O-143-48/18	SG-5- [F ₁ (Oqdaryo-6 x Toshkent-6) x (F ₁ S4911 x Toshkent-6)]	19,08	16,58	8,73
O-71-74/18	SG-7-F ₁ (S4911 x Toshkent-6) x (F ₁ Oqdaryo-6 x Toshkent-6)]	18,56	16,11	8,90
O-451-58/18	VK-1-{{F ₁ (Yulduz x S-6532) x (Oqdaryo-6 x S-6532)] x [(F ₁ S9070 x S-6532) x (F ₁ An-415 x S-6532)]}}	17,55	16,25	8,52
O-539-40/18	VK-2- {F ₁ [F ₁ (S-4911 x S-6532) x F ₁ (Oqdaryo-6 x S-6532)] x [F ₁ (S-9070xS-6532) x F ₁ (Yulduz x S-6532)]}}	18,45	17,45	8,79



O-495-500/18	VK-5 {[F ₁ (Qirg'iz-3 x Toshkent-6) x (Oqdaryo-6 x Toshkent-6)] x [(F ₁ 4911 x S6532) x (F ₁ S-9070 x Toshkent-6)]}	18,95	16,85	8,90
O-127-30/18	VK-5 -{[F ₁ (Qirg'iz-3 x Toshkent-6) x (Oqdaryo-6 x Toshkent-6)] x [(F ₁ 4911 x S6532) x (F ₁ S-9070 x Toshkent-6)]}	17,52	17,56	9,20
O-503-08/18	VK-5 -{[F ₁ (Qirg'iz-3 x Toshkent-6) x (Oqdaryo-6 x Toshkent-6)] x [(F ₁ 4911 x S6532) x (F ₁ S-9070 x Toshkent-6)]}	18,55	17,58	9,12
O-165-72/18	VK-5 -{[F ₁ (Qirg'iz-3 x Toshkent-6) x (Oqdaryo-6 x Toshkent-6)] x [(F ₁ 4911 x S6532) x (F ₁ S-9070 x Toshkent-6)]}	18,65	16,45	7,45
O-357-68/18	VK-9 -{[F ₁ (S-9070 x S-6532) x (Yulduz x S-6532) x [(F ₁ S-4911 x S-6532) x (F ₁ Oqdaryo-6 x S-6532)]}	19,10	17,54	8,55
O-541-52/18	VK-9 -{[F ₁ (S-9070 x S-6532) x (Yulduz x S-6532) x [(F ₁ S-4911 x S-6532) x (F ₁ Oqdaryo-6 x S-6532)]}	19,61	16,81	8,45
O-313-22/18	VK-12 -{[F ₁ (S-4911 x Toshkent-6) x (Oqdaryo-6 x Toshkent-6)] x [(F ₁ S-9070 x Toshkent-6) x (F ₁ Yulduz x Toshkent-6)]}	19,84	17,92	8,62
O-385-90/18	VK-12 -{[F ₁ (S-4911 x Toshkent-6) x (Oqdaryo-6 x Toshkent-6)] x [(F ₁ S-9070 x Toshkent-6) x (F ₁ Yulduz x Toshkent-6)]}	19,47	18,50	8,97
O-447-48/18	VK-13 -{[F ₁ (S-4911 x S-6532) x (Oqdaryo-6 x S-6532)] x [(F ₁ Yulduz x Toshkent-6) x (F ₁ Qirg'iz-3 x Toshkent-6)]}	20,24	18,41	8,68

O'rta tolali g'ozadagi namlik 7,61 (O-197-200/18) %dan 9,40 (O-241-42/18) %gacha bo'lganligi namoyon bo'ldi.



Ajratib olingan transgressiv rekombinatsiyalash prinsipi asosidagi konvergent oilalarda oqsil miqdori 11,88 (O-197-200/18) %dan 18,62 (O-241-42/18) %gacha bo'lib, O-313-22/18 va O-385-90/18 oilalarida tegishli ravishda 18,50 % va 18,41 % gacha bo'lganligi aniqlandi. Aksariyat oilalarda 16-17 % oqsil miqdori qayd etildi.

Xulosalar. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, O-385-90/18 oilasida namlik 8,68 %, moy miqdori 22,24 % va oqsil miqdori 18,41 %, O-313-22/18 oilasida namlik 8,97 %, moy miqdori 20,47 %, oqsil miqdori 18,50 %, O-241-42/18 oilasida tegishli ravishda 8,74 %, 20,66 %, 18,62 % ni tashkil etib, ijobiy natijalar namoyon bo'ldi.

Demak, O-385-90/18, O-313-22/18, O-241-42/18 oilalaridan moy va oqsil miqdori yuqori, O-197-200/18 oilasidan moy miqdori yuqori bo'lgan seleksion ashyolar yaratishda genetik-seleksion izlanishlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.E.Egamberdiyev, SH.I.Ibragimov, A.B.Amanturdiyev. Fo'za seleksiyasi, urug'chiligi va biologiyasi., O'zbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasi ""Fan" nashriyoti. Toshkent, 2009. 88-b.
2. G.R.Xolmurodova, I.M.Rasulov, S.T.Jo'rayev, F.N.Toreyev. G'o'za genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi. O'quv qo'llanma. Toshkent,2020. 323 b.

